TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i
I.Madatov
2024-yil 19-oktabr

**Samarqand davlat universitetning kattaqo‘rg‘on filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti 2-bosqich O’zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabalariga 3-semestr uchun « Hozirgi o‘zbek adabiy tili 2» fanidan yakuniy nazorat savollari**
**Imtihon shakli: yozma, og’zaki**

| № | Mavzu: | 1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’ladi). | 2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’ladi). | 3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’lmaydi). | 4-QISM qism “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’lmaydi). | 5-qism “QIYIN SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to’liq anglashga yo’naltiradigan savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’lmaydi). |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Morfemika | 1. Soddalanish va morfologik qayta bo‘linishning farqi nimada? (Tayanch tushunchalar: soddalanish, morfologik) | 1.“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kursining “Morfemika” bo‘limida qanday masalalar o‘rganiladi? (Tayanch tushunchalar: morfema, morf, allamorf) | 1. Suffiks haqida ma’lumot bering. Misollar yordamida izohlang. | 1. Venn” diagrammasi orqali so‘z va affiks morfemalaming umumiy va xususiy jihatlariga tavsif bering. Diagrammaga so‘z va affiks morfemaning xususiy jihatlarini, diagrammaning tutashgan qismiga umumiy jihatlarini qayd eting. | 1. Nokategorial shakl yasovchi vositalarni ajrating hamda ularga tavsif bering: -chi, -gina, -kor, -ser, -mi, -dan, -lar, -iy, - choq, -ni, -imsira, -soz, -gan, -ish, -niki. |
| 2. | | 2. Kategorial va | 2. ‘‘O‘zbek tili | 2.Morfema haqida | 2. So ‘zning morfemik | 2.Quyida berilgan so‘z |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | nokategorial shakl yasovchi qo‘shimchalar haqida ma’lumot bering. (Tayanch tushunchalar: kategorial va nokategorial shakl yasovchi qo‘shimchalar) | morfemikasi” qo‘llanmasidagi (Ё.Тожиев. Узбек тили морфемикаси. — Тошкент, 1992) so‘z o‘zak, morfema terminlari bo‘yicha bildirilgan nazariy qarashlarga munosabat bildiring. (Tayanch tushunchalar: so‘z o‘zak, morfema) | ma’lumot bering. Misollar yordamida izohlang. | tarkibi haqida ma’lumot bering. Misollar yordamida izohlang. | yasovchi qo‘shimchalar bilan yasaluvchi so‘zlar paradigmasini hosil qiling. Yasama so‘zlar miqdoriga qarab qo‘shimchalarni unumli, kamunum va unumsiz qo‘shimchalarga ajrating.<br>-i, -zor, -dak, -dor,<br>-no, -in, -li, -ra, -q,<br>-chil, -shunos, -la,<br>-kash, -qin |
| 3. | Affikslarning strukturasi | 3. So‘zning morfem strukturasi haqida ma’lumot bering. (Tayanch tushunchalar: so‘z o‘zak, morfema) | 3. Morfemikaning boshqa til bo‘limlari bilan aloqasi nimalarda ko‘rinadi? (Tayanch tushunchalar: morfologiya, sintaksis, leksika) | 3. “O‘zbek tilining morfem lug‘ati” kitobining muallifi kim va unda morfemalar qaysi jihatdan tasniflangan? | 3. Ilmiy manbalar asosida XIX asr o‘zbek tilshunosligida morfem birliklar tadqiqi yuzasidan erishilgan yutuqlarni umumlashtirib fikringizni bayon eting. | Otlarni morfologik tahlil qiling. Adolat so’zining mazmunida poklik, to’g’rilik, haqiqat, mujassamdir. Insoniyat yaralgandan beri adolatni qadrlab yashagan. Adolat bo’lgan joy gullab-yashnagan, xalq erkin bo’lgan. Adolat oyoq-osti qilingan joylarda esa razolat hukm surib, jamiyat tubanlikka yuz tutgan. |
| 4. | | 4. Affiks morfemalar shakl va ma’no - munosabatiga ko‘ra qanday tasniflanadi? (Tayanch tushunchalar: omonim affikslar, sinonim affikslar, antonim affikslar, | 4. Affikslarning pleonastik qo‘llanishiga misollar keltiring va izohlang. ( Namuna: kichkinagina — kichik + gina + gina ) | 4. Affiks morfemalar ma’no va vazifasiga ko‘ra qanday tasniflanadi? | 4. Morfemalar ma’no va vazifasiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi? | Otlarni morfologik tahlil qiling. Musulmon kishi adolatli bo’lishni eng keraklixislatlardan deb hisoblaydi. Alloh taolo bandalarini adolatga, yaxshilikka vaqarindoshlarga |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | paronim ) | | | | g'amxo'r, mehribon bo'lishga buyuradi. Adolat dinimizdaardoqlangan yeng ulug' xislatlardan biri. Bandaning yaratgan zotni tanib,unga bo'ysunishi, uning Allohga nisbatan qilgan adolatidir. |
| 5. | Derivatologiya | 5. Derivatsiya va so'z yasalishi hodisalarining farqli va o'xshash jihatlarini tushuntiring. (Tayanch tushunchalar: derivatsiya va so'z yasalishi) | 5. Ilmiy manbalar asosida (R.Sayfullayeva va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 2009. 132-b.) so'zning morfem tarkibida kuzatiluvchi tublashish, yaxlitlmish, soddalashish, birlashish hodisalariga tavsif bering. (Tayanch tushunchalar: tublashish, yaxlitlmish, soddalashish, birlashish) | 5. O'zbek tilshunosligida qaysi olimlar so'z yasalishi masalasini tadqiq etishgan? | 5. Sinxron va diaxron so'z yasalishi deganda nimani tushunasiz? | Morfologik tahlil: Vatan! Sen bizga qanchalar qadrli va yaqinsan. Sendan yiroq ketishni, sendan ayrilishni istamaymiz. |
| 6. | | 6. So'z yasalish turlari va uslullari haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: sinxron so'z yasalishi, diaxron so'z yasalishi, affiksatsiya usuli, kompozitsiya usuli, fonetik usuli, semantik usuli ) | 6. Tarixiy va sinxron derivatsiyaning farqini tushuntirib bering. (Tayanch tushunchalar: tarixiy, sinxron ) | 6. Konversiya qanday hodisa? | 6. So'z yasalish tarkibi nima? U morfemik tarkibdan qanday farqlanadi? | 6. Yasama otlami sinxron va diaxron so'z yasalishi nuqtayi nazaridan guruhlarga ajrating va izohlang. Zamondosh, qarindosh, qishloq, toshloq, sholcha, bog'cha, qoldiq, po 'stloq, ovloq, rasmiyatchilik, ko'pchilik; ichak, abadiyat. |
| 7. | So'z turkumlarida so'z yasalishi | 7. Sifat yasovchi -li qo'shimchasining ma'no qirralarini ochib beruvchi misollar topib | 7. Sifat yasovchi -li qo'shimchasining ma'no qirralarini ochib beruvchi misollar topib izohlang. | 7. Okkazional so'z yasalishi deganda nimani tushunasiz? | 7. O'zbek tilida qanday so'z yasash usullari mavjud? | Morfologik tahlil: Lafz halollik, o'tkirlik, mardlik, mehr-muruvvatlilik kabi |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | izohlang. (Tayanch tushunchalar: Yasash asosidan anglashilgan narsaga egalik, o sha narsaning borligi, mavjudligi, Yasash asosidan anglashilgan narsaning odatdagidan ko‘ra ko‘pligi, mo‘lligi, ortiqligi) | (Tayanch tushunchalar: Mavhum otlarga qo‘shilib, narsaning odatdagidan ko‘ra ko‘pligi, mo‘lligi, ortiqligi, Yasash asosi fe’lning sifatdosh shaklidan bo‘lib, narsaning undan anglashilgan harakat-belgi, holat xususiyatga ega ekanligi) | | | xislatlarni ko’rsatuvchi jarayondir. O’z lafzida turish xalqimizning urf-odatlaridandir. Lafz egasi bo’lgan kishida insoniylik kuchli bo’ladi. U axloq-odobli bo’lib, yaxshilik sari yetaklaydi (H.Mahkamov. Axloq - odob saboqlari). |
| 8. | | 8. Berilgan so‘z yasash modellari asosida ravishlar hosil qiling. Ravishlaming yasalish modellari haqida ilmiy axborot bering. (Tayanch tushunchalar: [ot + -cha = ravish], [sifat + -larcha = ravish], [sifat + -cha — ravish], [ot + -chasiga — ravish] ) | 8.Berilgan so‘z yasash modellari asosida ravishlar hosil qiling. Ravishlaming yasalish modellari haqida ilmiy axborot bering. (Tayanch tushunchalar: [ot + -dek = ravish], [sifat + -ona — ravish], [sifat + -lay = ravish], [son + -dan = ravish]) | 8. Etimologiya tilshunoslikning qanday sohasi? Uning so‘z yasalishi bilan qanday aloqasi bor? | 8. Akademik A.Hojiyevning “O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi” qo‘llanmasi ( -Toshkent: 0 6qituvchi, 2007. 6-16-b.)da so‘z yasalishining kompozitsiya usuli haqida berilgan qarashlami tahlil qiling va munosabat bildiring. | Morfologik tahlil: An’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar insoniyat taraqqiyotida muhim o’rin tutadi. Ular hayotiy zarurat tufayli paydo bo’lgan va xalqning turmush tarzi, ruhiyati, ma’naviy dunyosi, orzu istaklarini ifoda yetib, jamiyatning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga katta ta’sir qiladi (H.Mahkamov. Axloq-odob saboqlari). |
| 9. | Morfologiya. Grammatika va uning vazifasi | 9. Grammatika haqida ma’lumot bering. (Tayanch tushunchalar: morfologiya, sintaksis) | 9.Grammatik ma’no haqida ma’lumot bering. (Tayanch tushunchalar: grammatik ma’no, UGM, XGM, OGM) | 9.“Venn” diagrammasi orqali grammatik va lug‘aviy ma’noning umumiy va xususiy jihatlariga tavsif bering. Diagrammaga grammatik va lug‘aviy ma’noning xususiy jihatlarini, diagrammaning tutashgan qismiga umumiy jihatlarini tushuntiring. | 9.“Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya” (H.G\Ne’matov, R.R.Sayfullayeva va b. -Toshkent, 2008. 171-195-b.) qo‘llanmasida yondosh va hamroh ma’no, ularning turlariga oid nazariy qarashlarga munosabat bildiring. | Grammatik ma’noni hosil qiluvchi vositalami ajrating hamda ularga tavsif bering: -chi, -di, -gina, -kor, -ser, -mi, -dan, -lar, -iy, - choq, -ni, -imsira, - soz, -im, -ning |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 10. | | 10. Grammatik shakl haqida ma’lumot bering. (Tayanch tushunchalar: grammatik shakl) | 10. So‘zshakllari haqida fikr bildiring. (Tayanch tushunchalar: sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakl ) | 10. Leksik va grammatik ma’no qanday farqlanadi? | 10. O‘zbek tilida qanday grammatik kategoriyalar ajratiladi? | Morfologik tahlil: Istiqlol bergan eng katta boyliklardan birinchisi ana shu desak, aslo yanglishmagan bo’lamiz, -deb xalqimizning necha asrlardan buyon yagona orzu - ona-Vatan sog’inchi bilan yashaganini juda to’g’ri ta’kidladilar. |
| 11. | So‘z turkumlari | 11. Berilgan morfologik so‘z shakllariga tavsif bering: (uyga, bog‘imizda, ko‘chamiz, bizlar, texnologiyalashtirishning, o‘ntasini) | 11.So‘zning morfologik strukturasi deganda nimani tushunasiz? | 11. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”ning “Morfologiya” bo‘limida qanday masalalar o‘rganiladi? | 11. “Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya.” (H.G‘.Ne’matov, R.R.Sayfullayeva va b. - Toshkent, 2008. 224-244-b.) qo‘llanmasidan shaxsiy munosabat kategoriyasiga oid nazariy qarashlarga munosabat bildiring. | Morfologik tahlil: Sohibqiron qaynotasi Tabrizda ekanida Gavharshod begimning kundoshlik azobini yengillatadigan ajib bir inoyat ham qildi. Besh yillik harbiy yurish hali davom etayotgani uchun Amir Temurning o’zi Tabrizda qoldi-yu, o’g’li Shohruh Mirzoni Turonga hokim tayinlab, xotin-bolalari bilan Samarqandga jo’natib yubordi. (P.Qodirov) |
| 12. | | 12. “Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya” (H.G\Ne’matoy, R.R.Sayfullayeva va b. - Toshkent, 2008) qo‘llanmasida substansial morfologiyaga oid nazariy qarashlar haqida fikringizni bildiring. | 12. Morfologik so‘z shakli deganda nimani tushunasiz? (Tayanch tushunchalar: sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakl ) | 12. So‘zni turkumlarga ajratishda semantik tamoyil qanday o‘rin tutadi? | 12. So‘zlami turkumlarga ajratishda qanday tamoyillarga asoslaniladi? | Morfologik tahlil: Begim hayotining shu vaqtgacha bo’lgan eng farahli kunlari Samarqandda, Bog’i Dilkushoda o’tdi. Shohruh Mirzo Gavharshod begimni davlat ishlariga yaxshi tushunadigan aqlli va ma’rifatli ayol sifatida |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | ham yaxshi ko'rar, ba'zi murakkab muammolarni hal qilishda begimning maslahatini olar edi (P.Qodirov) |
| 13. | Fe'l so'z turkumi | 13. Fe'l va uning UGM, OGM, XGM larini tushuntirib bering. (Tayanch tushunchalar:umumiy grammatik ma'no, oraliq grammatik ma'no, xususiy grammatik ma'no) | 13. Fe'lning LMT va LMGlari haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: LMG, LMT ) | 13. Qanday vaqtda fe'llarning gapni shakllantira olish xususiyati namoyon bo'ladi? | 13. Fe'llar ma'no jihatdan qanday turlarga bo'lib o'rganiladi? Misol keltiring. | Berilgan fe'llami ma'no jihatdan tasniflang. Kelmoq, aytmoq, o'ylamoq, yig'lamoq, buzmoq, yechmoq, gapirmoq, sensiramoq, ishlamoq, qurmoq, ko'tarmoq, sezmoq, aralashtirmoq, o'qimoq, anglamoq, bezovtalanmoq, hayratlanmoq. |
| 14. | | 14. Fe'l derivatsiyasi haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: affiksatsiya, kompozitsiya,derivatsiya, transpozitsiya, konversiya) | 14. Fe'lning tuzilishiga ko'ra turlarini tahlil qiling. (Tayanch tushunchalar: sodda, qo'shma, juft, takroriy) | 14. O'zbek tilshunosligida fe'lning qanday grammatik kategoriyalari farqlanadi? | 14. Harakat nomi shakllari va ularning vazifasini tushuntiring. | Berilgan fe'llar ichidan tafakkur fe'llarini ajrating. Ko'rmoq, fikrlamoq, so'zlamoq, o'ylamoq, singdirmoq, tasavvur qilmoq, yechmoq, bukmoq, hal qilmoq, xayol surmoq, yotmoq, oshirmoq, anglamoq. |
| 15. | Fe'llarda zamon kategoriyasi | 15. Fe'ldagi so'zshaklning turlari haqida fikr bildiring. | 15. Fe'l derivatsiyasi haqida ma'lumot bering va misollar keltiring. | 15. Nutq va tafakkur fe'llari qanday farqlanadi? | 15. Fe'l zamoni va gap zamoni o'rtasida qanday farq mavjud? | Morfologik tahlil: O'zni dono bilgan u uch-to'rt nodon, eshak tabiatin qilur namoyon, ular suhbatida sen ham eshak bo'l, bo'lmasa kofir deb qilishar e'lon! (Umar Xayyom) |
| 16. | | 16. Fe'lning grammatik xususiyatini tushuntirib bering. | 16. Fe'lning derivatsiyasi haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: | 16. Fe'lning tuslanishi, deganda nimani tushunasiz? | 16. O'zbek tilshunosligida ko'makchi va to'liqsiz | Morfologik tahlil: Ali Qushchi belidagi ikki belbog' oltin va |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | (Tayanch tushunchalar: grammatik kategoriya ) | affiksatsiya, kompozitsiya, derivatsiya, transpozitsiya, konversiya) | | fe'llar qaysi tilshunos olim tomonidan maxsus tadqiq etildi? | javohirlarni o'rtadagi kursiga «shaq» etkazib tashladi-da, qo'liga shamni olib, javonlarni bitta-bitta ko'zdan kechirib chiqdi. Mana, o'ng tomonda sadafdek terilgan uch qator qora charm jildlik og'ir, qalin kitoblar, bu kitoblar olis Qohiradan keltirilgan. |
| 17. | Fe'llarda shakl yasalishi | 17. Fe'lning harakat tabiatini ko'rsatuvchi shakllari haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: -la, -kila/gila/g'ila/qila), -(i)nqira, -(i)msira) | 17. Fe'lning harakat tabiatini ko'rsatuvchi shakllarining turlari. (Tayanch tushunchalar: harakatning davomiyligini, takroriyligini ifodalovchi shakl, harakatning kuchsiz darajasini ko'rsatuvchi shakli) | 17. Affiksatsiya usulida fe'l yasalishini misollar orqali tushuntiring. | 17. Leksemalar tasnifidagi «ma'noviy nomustaqillik» tushunchasi haqida fikringizni bayon qiling. | Morfologik tahlil: Bu xonaning devorlariga ham bezakli javon yasalib, yerdan shiftigacha kitob terilgan. Faqat qibla tomondagi devor bo'sh, unga onhazratlarining samovot jadvallari osilgan edi. Misriyai Qohiradan keltirilgan qalin ipak qog'ozga tushirilgan zarhal nuqtalar – yulduzlar surati qorong'ida xuddi chinakam osmonu chinakam sitoralarday yarqirab, ajib bir manzara kasb etgan edi... (O.Yoqubov) |
| 18. | | 18. Fe'lning tasniflovchi kategoriyalari haqida umumiy ma'lumot bering. | 18. Nisbat kategoriyasi haqida umumiy tushuncha bering. | 18. Kompozitsiya usulida qo'shma va juft fe'llar yasalishiga misollar keltiring. | 18. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi haqida ma'lumot bering. | Morfologik tahlil: Dunyoni qig'anma, mendan azizim, ko'nglingni yoqmasin, shubha va so'roq. Men o'zga manzilga tikkanman ko'zim. U |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | sening kulbangdan juda ham yiroq! (A.Oripov) |
| 19. | Fe’llarda shakl yasalishi | 19. Fe’lning harakat tarzi kategoriyasi haqida umumiy ma’lumot bering. | 19. Fe’lning o‘zgalovchi kategoriyasi haqida gapiring. | 19. Ravishdosh shakli va uning variantlarini tushuntiring | 19. Sifatdosh shakllari va uning turlari to‘g‘risida fikr bildiring. | Morfologik tahlil: Yaxshilar va’da beradi va uni sharaf bilan bajaradi. Lafzida turmaydigan, va’dasini bajarmaydigan kimsalarga nisbatan lafzi yo’q, chin so’zli, ahdida turadigan, va’dasining ustidan chiqadiganlar uchun lafzi halol iborasi qo’llaniladi (H.Mahkamov. Axloq - odob saboqlari). |
| 20. | | 20. Fe’lning harakat tabiatini ko‘rsatuvchi shakllari (nokategorial shakllar) haqida fikr bildiring. | 20. Kesimlik kategoriyalarini misollar orqali tushuntirib bering. | 20.R.Rasulovning “O‘zbek tili fe’llarining ma’no tuzilishi” (-Toshkent, 2001) kitobida berilgan fe’llarning tasnifi masalasiga munosabat bildiring. | 20. Harakat nomi shakli va uning turlari bo‘yicha fikringizni bayon qiling. | Morfologik tahlil: G’azallar to’qirdim, senga bir zamon, qo’shiqlar aytardim tunlar boshingda, nachora, ushbu kun o’zga bir inson, o’zga bir muhabbat turar qoshingda (A.Oripov) |
| 21. | Ot so'z turkumi | 21. Ot va uning UGMsi haqida ma’lumot bering (Tayanch tushunchalar: UGM, OGM, XGM) | 21. Otning UGM parchalanishiga ko‘ra turlari haqida ma’lumot bering. (Tayanch tushunchalar:turdosh, muayyan, mavhum, yakka, jamlovchi) | 21. Ot derivatsiyasi haqida fikr yuriting va misollar orqali fikringizni isbotlang. | 21. Son kategoriyasi haqida ma’lumot bering. | Morfologik tahlil: Mukammal ko’rmoqchi bo’ldik dunyoni, yetuk bo’lolmadik o’zimiz biroq, o yillar armoni, yillar armoni, armon ko’rmadim men sizdan buyukroq! |
| 22. | | 22. Otning xususiy lug‘aviy shakllari: (Tayanch tushunchalar: shaxsiy munosabat shakllari) | 22. Otda aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi (Tayanch tushunchalar:egalik, kelishik, kesimlik ) | 22. Otning asosiy va doimiy bo`lmagan grammatik kategoriyalarini solishtiring va farqli | 22. Jo‘nalish kelishigining UGM, OGM, XGM ma’nolari haqida ma’lumot bering. (Tayanch tushunchalar: | Morfologik tahlil: Qurvonbibi bir nafas tinmasdan, o’zicha so’zlanar, kim yoniga borsa, Zebini maqtab |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | jihatlarini izohlang. | UGM, OGM, XGM ) | gapirar, uning dutor chalishi, ashula aytishi, chok tikishi, do'ppi bosishlarini hikoya qilar, yurish-turishlari, qaddi-qomati, bo'ylari, ko'zlari, qoshlarining chiroyliligini aytib har kimdan «Qani, mening Zebim?, Qani, Zebonam?» deb so'rar; shundan so'ng ho'ngrak otib yig'lab yuborar edi. Qish chiqishiga yaqin allaqanday qarindoshlari kelib uni olib ketdilar…(«Kecha va Kunduz»dan) |
| 23. | Ot so'z turkumi | 23. Grammatikaning tarkibiy qismlari haqida so'zlang. h(Tayanch tushunchalar: morfologiya, sintaksis) | 23.Asliy sifatlarning daraja kategoriyasi va sifat yasalishi (Tayanch tushunchalar: asliy, nisbiy, kategoriya, affiksatsiya,sintaktik usul) | 23.O'rin-payt kelishigining UGM, OGM, XGM ma'nolari haqida ma'lumot bering. (Tayanch tushunchalar: UGM, OGM, XGM ) | 23. Otning tasniflovchi kategoriyasi haqida ma'lumot bering. | Morfologik tahlil: Odatdagiday, kechasi samoviy holatlarni kuzatib o'tirgan mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi bir payt vujudida xiyol noxushlik sezib, o'rnidan turdi. Qayerdadir yuqorida, birinchi oshyonada, oyoq tovushlari eshitildi. Bu tovushlar rasadxona tolibi ilmlarining sharpasiz odimlariga o'xshamas, sipohlarning betakalluf qadamlarini eslatardi. |
| 24. | | 24. Egalik kategoriyasining UGM | 24. Egalik kategoriyasining sintaktik | 24. Chiqish kelishigining UGM, OGM, XGM | 24. Qaratqich kelishigining UGM, | Morfologik tahlil: Dunyoni qizg'anma, |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | haqida ma’lumot bering. (Tayanch tushunchalar: UGM, OGM, XGM ) | xususiyati haqida ma’lumot bering.(Tayanch tushunchalar: BK, QK, JK,TK, O‘PK,ChK) | ma’nolari haqida fikringizni bayon qiling. | OGM, XGM ma’nolari haqida fikringizni bayon qiling. | mendan azizim, ko’nglingni yoqmasin, shubha va so’roq. Men o’zga manzilga tikkanman ko’zim. U sening kulbangdan juda ham yiroq! |
| 25. | Ot so'z turkumi | 25.Bosh kelishikning UGM, OGM, XGM ma’nolari haqida fikringizni bayon qiling. | 25. Tushum kelishigining UGM, OGM, XGM ma’nolari haqida fikringizni bayon qiling. | 25. Fe’llarning mayl kategoriyasi haqida ayting va misollar keltiring. | 25. Shaxsiy munosabat kategoriyasining nutqda voqelanish xususiyatlarini izohlang. | Morfologik tahlil: Mana, bir-ikki yil bo’ldi, olis Hirotdan Xoqoni Said atalmish Shohruh Mirzo vafoti to’g’risida mash’um xabar kelganidan buyon Movarounnahr va Xuroson osmonidan qora bulutlar arimay qoldi. Taxt va saltanat ishqida yongan Temuriy shahzodalar qilich va tig’ charxlashdan qo’llari bo’shamadi (O.Yoqubov) |
| 26. | | 26. Subyektiv baho shakllarini tushuntirib bering.(Tayanch tushunchalar: erkalash, kichraytirish, grammatik shakl ) | 26.Juft otlarning tarkibiga ko‘ra turlari to‘g‘risida ma’lumot bering va misollar keltiring. | 26. Sifatdoshning gapdagi vazifasini misollar yordamida ayting. | 26. Atoqli va turdosh otlarning o‘zaro farqini tushuntiring. | Morfologik tahlil: Inson esa olamaro olamdir, uning idroki, tafakkur kuchi va tuyg’ularining jo’shqinligi oldida tashqi olam rangsiz va bemajoldir. Darvoqye, inson yaralibdiki, hamisha olamni anglashga, dunyoning turfa xil mo`jizalarini bilishga intiladi. (“Vatan tuyg’usi”) |
| 27. | Mustaqil ta’lim | 27. Morfemalarning funksional-semantik | 27. Fe’llning tuzilishi ko‘ra turlarini izohlang. | 27. Otda aloqa-munosabat | 27. Ot turkumida egalik kategoriyasining | Morfologik tahlil: Sohibqironning buyrug’i |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | topshiriqlari | tavsifi haqida gapiring. Misollar keltiring. | (Tayanch tushunchalar: sodda, qo‘shma, juft, takroriy) | kategoriyalarining voqelanishini tushuntiring. | ishlatilish holatini misollar bilan izohlab bering. | so’zsiz bajarilardi. Endi o’n yettiga kirgan kelin ikkiqat ahvolda minglab chaqirim masofani yomg’irli qor-qirovli sovuq kunlarda bosib o’tib, hut oyida Tabriz yaqinidagi Sultoniyaga yetib borganini hozir eslasa o’zining chidam-bardoshiga hayron qoladi. (P.Qodirov) |
| 28. | | 28.Sodda va murakkab morfemalar to‘g‘risida tushuncha bering va misollar ayting. | 28. Otning tuzilishi ko‘ra turlarini izohlang. (Tayanch tushunchalar: sodda, qo‘shma, juft, takroriy)) | 28.Fe’llarda bo‘lishli va bo‘lishsizlik hodisasini aytib bering. | 28. Prefiks haqida ma’lumot bering. Misollar yordamida izohlang. | Morfologik tahlil: Adolat so’zining mazmunida poklik, to’g’rilik, haqiqat, mujassamdir. Insoniyat yaralgandan beri adolatni qadrlab yashagan. Adolat bo’lgan joy gullab-yashnagan, xalq erkin bo’lgan. Adolat oyoq-osti qilingan joylarda esa razolat hukm surib, jamiyat tubanlikka yuz tutgan. |
| 29. | Mustaqil ta’lim topshiriqlari | 29. Morfemik omonimiyaga misollar keltiring. Turini ayting. | 29. Derivatsiya va relyatsiya atamalarini izohlang. | 29. Fe’llarda shaxs-son shakllari va ularning bir-biriga ko‘chishini misollar yordamida yoriting. | 29.So ‘z morfema haqida ma’lumot bering. Misollar yordamida izohlang. | Morfologik tahlil: Musulmon kishi adolatli bo’lishni eng kerakli xislatlardan deb hisoblaydi. Alloh taolo bandalarini adolatga, yaxshilikka va qarindoshlarga g’amxo’r, mehribon bo’lishga buyuradi. Adolat dinimizda |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | ardoqlangan yeng ulug' xislatlardan biri. Bandaning yaratgan zotni tanib, unga bo'ysunishi, uning Allohga nisbatan qilgan adolatidir. |
| 30. | | 30. Sifatdosh va ravishdosh shakllarining ma'no va vazifalarini tushuntiring. (Tayanch tushunchalar: Sifatdosh, ravishdosh) | 30. An'anaviy va sistem morfologiya deganda nimani tushunasiz? (Tayanch tushunchalar: An'anaviy, sistem, morfologiya) | 30. Fe'llarda zamon shakllari va ularning ko'chishini misollar yordamida aytib bering. | 30. Affiks morfema haqida ma'lumot bering. Misollar yordamida izohlang. | Morfologik tahlil: Vatan! Sen bizga qanchalar qadrli va yaqinsan. Sendan yiroq ketishni, sendan ayrilishni istamaymiz. |